

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATI TAHLILI

PhD., Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID:0085-1545-6989-8462

ANALYSIS OF THE INVESTMENT ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS

PhD., Dagarov Bekzod Muzaffar ugli

Independent Researcher at Tashkent State

University of Economics

Annotatsiya Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsion faoliyatining amaldagi holati har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida bank investitsiyalarining hajmi, tuzilmasi, yo'nalishlari hamda real sektorni moliyalashtirishdagi o'rni baholanadi. Shuningdek, tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy moliyaviy, makroiqtisodiy va institutsional omillar aniqlanib, mavjud muammolar va cheklovlar ochib beriladi. O'rganish natijalariga asoslanib, tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar tijorat banklari, investitsion faoliyat, bank investitsiyalari, real sektor, moliyaviy barqarorlik, investitsiya portfeli, kredit va investitsiya resurslari, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state of investment activity of commercial banks. The study evaluates the volume, structure, and directions of bank investments, as well as their role in financing the real sector of the economy. In addition, the main financial, macroeconomic, and institutional factors influencing the investment activity of

commercial banks are identified, and existing problems and constraints are revealed. Based on the research findings, scientific and practical conclusions and recommendations are developed to further enhance the investment activity of commercial banks and improve its efficiency.

Keywords: commercial banks, investment activity, bank investments, real sector, financial stability, investment portfolio, credit and investment resources, economic growth.

Kirish

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va raqobatbardosh real sektorni shakllantirishda tijorat banklarining investitsion faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar iqtisodiyotga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda moliya bozorlaridagi beqarorlik, global iqtisodiy xatarlarning kuchayishi va ichki moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarurati tijorat banklari investitsion faoliyatining amaldagi holatini chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, bank investitsiyalarining real sektor rivojiga ta'siri, ularning tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Shu bois, mazkur tadqiqot tijorat banklarining investitsion faoliyatini amaldagi holati nuqtayi nazaridan baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda investitsiya jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarining investitsion faoliyati, moliya-sanoat guruhlar doirasida banklar tomonidan investitsion siyosatni amalga oshirishning muhim jihatlari, moliya-sanoat guruhlarida banklar investitsion siyosatiga ta'sir etuvchi omillar, banklar investitsion faolligini oshirishda tijorat banklari faoliyatining asosiy xususiyatlari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondoshuvlarga egadir.

I.Yu.Belyaeva, M.A. Eskindarovlar moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish orqali tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish, moliya-sanoat guruhlarida aksiyadorlik munosabatlarini samarali tashkil etish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan [1].

T.I.Minina va A.S.Kudakovlar moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish va rivojlantirishda banklarning roli, guruh doirasida banklarning investitsion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy jihatlari kabi masalalarni tadqiq etishgan [2; 3].

I.A.Zaripov moliya-sanoat guruhlar faoliyatida investitsion mexanizmni tashkil etish, tijorat banklari tomonidan investitsion siyosatni shakllantirish va guruh doirasida istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirishda banklarning roli oshirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borgan [4].

V.A.Svetkov, Ye.N. Chekmareva va V.V.Yarontovskiylar moliya-sanoat guruhlarining barqarorligini oshirishda guruh doirasida banklarning investitsiya faoliyatini tashkil etish mexanizmi, investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar va samarali investitsion siyosatni shakllantirish yo'nalishlarini tadqiq qilishgan [5; 6;7].

Tijorat Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan F.Mirzaev va J.X.Ataniyazovlar tomonidan banklari ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning banklar investitsion faolligini oshirishdagi o'rni hamda investitsion siyosatni shakllantirishning shart-sharoitlari, investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash orasida tadqiqotlar olib borgan [8; 9].

Tadqiqot metodologiyasi

Globalashuv sharoitida moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish orqali tijorat banklari investitsion faolligini oshirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ilmiy maqolada tijorat banklari investitsion siyosatini shakllantirish va moliya-sanoat guruhlarida ular tomonidan investitsion faoliyatni olib borish jarayonlarini tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi.


Tahlil va natijalar

Bank aktivlarining samarali boshqarilishi ularning moliyaviy barqarorligi va foydali ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar bankning rentabelligi va likvidligini belgilovchi asosiy komponent hisoblanadi. AT Aloqabankning aktivlari tarkibida

investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat daromad manbai, balki bank risklarini diversifikatsiya qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. 1-rasmda bank aktivlari tarkibidagi ushbu bo'limning ulushi va o'zgarish tendensiyalari ko'rsatilib, bankning investitsion siyosatini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish hozirgi iqtisodiy

taraqqiyot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning barqarorligi, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari va investitsiya faoliyati samaradorligi iqtisodiyotning umumiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois jozibadorlikni oshirish yo'nalishlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.




1-rasm. AT Aloqabankda bank aktivlari tarkibida investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi hajmi o'zgarishi, mlrd. so'm

AT "Aloqabank"da investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi hajmining yillik o'zgarishi ko'rsatilgan. 2021-yil 1-yanvarda ushbu ko'rsatkich 411,9 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda bu raqam 508,3 mlrd so'mgacha oshgan. 2023-yilda esa o'sish jadal tus olib, hajm 885,5 mlrd so'mga yetgan. 2024-yilda ko'rsatkich keskin pasayib, atigi 156,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu pasayish vaqtinchalik bo'lib, 2025-yilda investitsiyalar hajmi rekord darajadagi 2505,5 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'zgarishlar bankning investitsion faoliyati dinamikasini aniq aks ettiradi. 2021–2023 yillarda barqaror o'sish kuzatilgan. 2024-yildagi pasayish ehtimoliy tashqi omillar yoki strategik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2025-yildagi keskin o'sish esa bankning investitsiyalar

sohasidagi faoliyatini kengaytirganini ko'rsatadi. Mazkur ma'lumotlar bank investitsiyalari hajmidagi beqarorlik va rivojlanish bosqichlarini yoritib beradi.

AT "Aloqabank"da bank aktivlari tarkibida investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi ulushi yillar davomida sezilarli darajada o'zgarib brogan. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich past bo'lib, asta-sekinlik bilan o'sishni boshlagan. 2023-yilda bu ulush eng yuqori cho'qqiga chiqish arafasida bo'lgan bo'lsa-da, 2024-yilda keskin kamaygan. 2025-yilga kelib esa investitsiyalar ulushi keskin oshib, bank aktivlaridagi o'rni sezilarli darajada kengaygan. Bu holat bankning investitsion faoliyatini faollashtirgani va qimmatli qog'ozlar bozoriga e'tiborni kuchaytirganini ko'rsatadi.



2-rasm. AT Aloqabankda bank aktivlari tarkibida investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi ulushi o'zgarishi

Yuqoridagilar asosida qayd etish lozimki, tijorat banklarining kapital bozoridagi faolligini ta'minlash va investitsion portfel diversifikatsiyasini samarali tashkil etish maqsadida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiyalari hajmini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Natijada tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi ulushini yildan yilga oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Jumladan, AT "Aloqabank"da mazkur amaliyot orqali investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi ulushi avvalgi moliya yiliga nisbatan 1,5 foizga oshgan va 2022-yil yanvardagi 4,0 foizdan 2023-yil yanvarda 5,5 foizga o'sgan.

AT "Aloqabank" tomonidan taklif etilayotgan "Pro-tok energy" krediti elektromobillarni zaryadlash stansiyalarini

moliyalashtirishga qaratilgan. Ushbu kredit turi korporativ mijozlar va kichik biznes subyektlari uchun mo'ljallangan. Kredit miqdori 2,0 mlrd so'mgacha bo'lib, 36 oygacha muddatga ajratiladi. Shundan 6 oygacha bo'lgan davr imtiyozli davr sifatida belgilanadi. Kreditning yillik foiz stavkasi 26 foizni tashkil etadi. Mablag'lar elektromobillarni quvvatlovchi uskuna va jihozlar xaridiga yo'naltiriladi. Kredit ta'minoti sifatida depozit, avtotransport vositalari, ko'chmas mulk yoki uchinchi shaxs kafilligi talab etiladi. Mijozlardan ariza, moliyaviy hisobotlar, ta'sis hujjatlari va rozilik qarori taqdim etilishi lozim. Muhimi, kredit olish uchun biznes reja talab etilmaydi. Bu esa jarayonni soddalashtiradi va kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1-jadval

AT "Aloqabank"ning "Pro-tok energy" krediti shartlari¹

№	Ko'rsatkichlar	Asosiy shartlari
1	Kredit miqdori	2,0 mlrd. so'mgacha
2	Kredit muddati	36 oygacha (6 oygacha imtiyozli davr)
3	Foiz stavkasi (yillik)	26,0%
4	Xizmat turidan foydalanuvchilar	- Korporativ mijozlar; - Kichik biznes subyektlari
5	Kredit maqsadi	Elektromobillarni quvvatlashga mo'ljallangan uskuna va jihozlarni sotib olish uchun (elektromobillarni zaryadlash stansiyalari va shu turdagi uskuna-jihozlarni sotib olish uchun)
6	Kredit ta'minoti	Depozit
		Avtotransport vositalari
		Ko'chmas mulk
		Uchinchi shaxs kafilligi
7	Taqdim qilinadigan hujjatlar	Ariza
		Moliyaviy hisobotlar
		Ta'sis hujjatlari (guvohnoma, nizom, ta'sis shartnomasi)
		Kredit olish va garovga qo'yish to'g'risida ta'sischi-larning rozilik qarori

AT "Aloqabank"ning "Pro-tok energy" krediti korporativ mijozlar va kichik biznes subyektlari uchun mo'ljallangan bo'lib, elektromobillarni quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan uskuna va jihozlarni sotib olishni moliyalashtirish imkonini beradi. Kredit miqdori 2,0 mlrd so'mgacha belgilangan bo'lib, maksimal kredit muddati 36 oyni tashkil qiladi. Shuningdek, dastlabki 6 oy imtiyozli davr sifatida belgilangan bo'lib, bu davrda mijozlar asosiy qarz summasini qaytarishni kechiktirish imkoniga ega.

Kreditning yillik foiz stavkasi 26% bo'lib, bu bankning risklarni qoplash va daromadni ta'minlash siyosatiga muvofiqdir. Kredit ta'minoti turli variantlarda — depozit, avtotransport vositalari, ko'chmas mulk va uchinchi shaxs kafilligi shaklida amalga oshiriladi, bu esa bank uchun moliyaviy

xavfsizlikni oshiradi. Mijozdan ariza, moliyaviy hisobotlar, ta'sis hujjatlari hamda kredit olish va garovga qo'yish bo'yicha ta'sischi-larning rozilik qarori taqdim etilishi talab qilinadi.

Shu nuqtai nazardan, "Pro-tok energy" krediti bankning investitsion va ekologik yo'naltirilgan strategiyasini aks ettiradi. U korporativ va kichik biznes mijozlariga zamonaviy elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini sotib olishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlab, shuningdek, bank uchun barqaror kredit portfelini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu kreditning shaffof shartlari va turli kafillik mexanizmlari uning samaradorligini oshiradi va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining investitsion faoliyatining

¹ <https://aloqabank.uz/uz/corporate/crediting/Pro-tok%20energy/> - AT "Aloqabank" rasmiy sayti ma'lumotlari

amaldagi holati tahlili shuni ko'rsatadiki, banklar iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda muhim institut sifatida faol ishtirok etib kelmoqda. So'nggi yillarda banklarning investitsiya portfelini hajmi va tarkibi sezilarli darajada kengayib, uzoq muddatli kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish hamda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq tahlil natijalari tijorat banklarining investitsion faoliyatida qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, investitsiya resurslarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, uzoq muddatli resurs bazasining cheklanganligi, kredit risklarining yuqoriligi hamda ayrim investitsiya loyihalarining

samaradorligi pastligi banklarning investitsion imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, banklar investitsiya faoliyatida asosan davlat dasturlari va yirik loyihalarga tayanayotgani xususiy sektor hamda kichik biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini nisbatan cheklab qo'yimoqda.

Shu bois, tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularning kapital bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish hamda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish zarur. Mazkur chora-tadbirlar banklarning investitsion faolligini oshirish bilan birga, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Беляева И.Ю., Эскиндаров М.А. Финансово-промышленные группы в современной экономике. - М., 2004. – 216 с.
2. Кудakov А.С. Особенности формирования финансово-промышленных корпоративных структур и их влияние на экономику страны.// Проблемы современной экономики, №3(23), 2007. – С. 11.
3. Минина Т.И. Роль банков в формировании и развитии ФПГ России. автореф. дис...докт. эконом. наук. – Москва: 2000. – 12 с.
4. Зарипов И.А. Инвестиционный механизм финансово-промышленных групп России. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. - 2004. – С. 23.
5. Цветков В.А. Финансово-промышленные группы: тенденции развития // Промышленные ведомости, №14, 2001.
6. Чекмарева Е.Н. Банки в финансово-промышленных группах // Российский экономический журнал. – М., 1999. №7. с.20-27.
7. Яронтовский В.В. Банки в интегрированных холдинговых структурах: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2009. – 24 с.
8. Мирзаев Ф.И. Банклараро ракобат: моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: «Молия», 2008. –б. 193-205.
9. Атаниязов Ж.Х. Молия-саноат гуруҳларини шакллантириш: назарий, услубий ва амалий жиҳатлар. Монография. – Т.: Tafakkur qanoti. 2017. - 144 б.